



**MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI
QO‘LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

<https://doi.org/10.70728/conf.susta.v02.i01.007>

Anvar Bektoshev Xamza o‘g‘li

Qarshi davlat texnika universiteti, magistranti

anvarbektoshev15@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kichik biznes subyektlarining hududiy iqtisodiy o‘rindagi roli, davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional va moliyaviy mexanizmlar, shuningdek, innovatsion rivojlanish omillari chuqur o‘rganildi. Natijalar asosida tadbirkorlik muhitini yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, mintaqaviy rivojlanish, davlat siyosati, innovatsiya, iqtisodiy barqarorlik.

ABSTRACT This article provides an academic analysis of the priority directions for supporting and developing small business and private entrepreneurship within the regional economic framework. The study explores the role of small business entities in regional economic growth, state-driven institutional and financial mechanisms, and key factors of innovative development. Based on the findings, practical recommendations aimed at improving the entrepreneurial environment are proposed.

Keywords: small business, private entrepreneurship, regional development, state policy, innovation, economic sustainability.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mintaqaviy rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ushbu sektor iqtisodiyotning moslashuvchanligini oshirish, bozor mexanizmlarini faollashtirish hamda raqobat muhitini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Kichik biznes subyektlari, ayniqsa, iqtisodiy beqarorlik sharoitida tezkor qarorlar qabul qilish va bozor talablariga moslashish imkoniyatiga ega bo‘lgani bilan ajralib turadi. Sektor nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, xizmatlar ko‘lamini diversifikatsiya qilish aholi daromadlarini barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Kichik biznesning rivojlanishi hududiy resurslardan samarali foydalanish, ichki bozorni to‘ldirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. So‘nggi



yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar doirasida tadbirkorlik subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, xususiy sektor ulushini kengaytirish va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish ustuvor vazifalar etib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, shuningdek, “Tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmon va qarorlari ushbu sohani rivojlantirishning institutsional, moliyaviy va tashkiliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan. Davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, soliq va bojxona imtiyozlarini joriy etish, ma‘muriy tartib-taomillarni soddalashtirish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoqda. “Tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish to‘g‘risida”gi Prezident qarorlari kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta‘minlash, investitsiyaviy faolligini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Mintaqalar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, hududiy bandlik muammolarini hal etish hamda aholi turmush darajasini oshirishning muhim omili sifatida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlarini ilmiy asosda o‘rganish, amaldagi Prezident farmonlari va qarorlari hamda davlat dasturlari samaradorligini baholash, shuningdek, mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlili

Ilmiy tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantiruvchi muhim omillardan biri sifatida keng e‘tirof etiladi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda sektorning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, innovatsion faoliyatni kuchaytirish bandlik darajasini oshirish bevosita bog‘liq ekani ta‘kidlanadi. Mamlakatlar tajribasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda kichik biznes subyektlari iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshiruvchi va iqtisodiy inqirozlarga nisbatan barqarorlikni ta‘minlovchi muhim institut sifatida qoraladi (Audretsch, 2007; Beck, Demirgüç-Kunt, & Levine, 2005).

Xorijiy olimlar tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning institutsional roli alohida ahamiyat kasb etadi. Normativ-huquqiy muhitni shakllantirish, tadbirkorlik subyektlari moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, kreditlash tizimini



soddalashtirish hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi (OECD, 2017; Schumpeter, 1934). Ilmiy manbalarda soliq yukining maqbulligi, biznes yuritish xarajatlarini kamaytirish va mulk huquqining ishonchli himoyasi tadbirkorlik faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda isbotlangan.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni, hududiy iqtisodiy faollikni oshirishdagi ahamiyati ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri keng yoritilgan (Qodirov, 2018; Xolmirzayev, 2019; Karimov, 2021). O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda kichik biznesning hududiy bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Mintaqaviy rivojlanish nuqtayi nazaridan kichik biznes hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida baholanadi.

Adabiyotlarda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida uchraydigan muammolar tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali kadrlar taqchilligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi hamda bozor axborotiga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi kichik biznes rivojiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi.

Tadqiqotlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarning mavjudligi yetarli emasligi, choralar o'zaro muvofiqlashtirilgan va tizimli ravishda amalga oshirilishi zarurligi qayd etiladi. Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish faqat qisqa muddatli moliyaviy yordam bilan emas, balki uzoq muddatli strategik yondashuv, institutsional islohotlar, davlat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar (masalan, "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60, 2022; "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024 yil Farmon) va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda olib borilgan siyosat orqali samarali amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlarini o'rganish va ularning samaradorligini baholash maqsadida ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlaridan foydalanildi.

1. **Tizimli tahlil metodi** orqali kichik biznesni rivojlantirishga ta'sir etuvchi iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.
2. **Qiyosiy tahlil metodi** yordamida mintaqalar kesimida kichik biznes rivojlanish ko'rsatkichlari va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash



mexanizmlari taqqoslab baholandi.

3. **Statistik tahlil metodi** asosida rasmiy statistika ma'lumotlari tahlil qilinib, kichik biznesning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri aniqlashtirildi.
4. **Mantiqiy umumlashtirish va tahliliy xulosa chiqarish metodlari** asosida ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar (Prezident farmonlari, qarorlar, qonunlar) va davlat dasturlari mazmuni tizimlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, shuningdek, sohaga oid ilmiy tadqiqotlar asosiy axborot manbai sifatida foydalanildi. Mintaqaviy iqtisodiyotning xususiyatlari, hududiy resurslar va bandlik masalalari ham hisobga olindi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bir nechta o'zaro bog'liq ustuvor yo'nalishlar orqali amalga oshirilmoqda. Hududiy iqtisodiy faollikni oshirish va tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi.

1. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznes subyektlari faoliyatining ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2024 yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar hajmi 1,2 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lib, bu 2022 yilga nisbatan 35% ga ko'paygan. Shu bilan birga, subsidiyalar va grantlar orqali 850 ta startup loyihasi moliyalashtirilib, boshlang'ich kapital yetishmovchiligi sezilarli darajada kamaytirildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, moliyaviy yordam olgan korxonalar o'rtacha yillik o'sish sur'ati 18–20% ni tashkil qilmoqda.

2. Ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va raqamlashtirish. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish biznes yuritish muhitini sezilarli darajada yaxshilamoqda. 2023–2025 yillarda elektron ro'yxatdan o'tish tizimi orqali 42 000 dan ortiq yangi tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tkazildi, bu esa ro'yxatga olish vaqtini o'rtacha 12 kundan 3 kunga qisqartirdi. Elektron litsenziyalash va onlayn hisobot topshirish tizimlari orqali kichik biznes xarajatlari va byurokratik to'siqlar o'rtacha 25–30% ga kamaydi.

3. Innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish. Innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot ko'rsatdiki, raqamli savdo platformalari va onlayn xizmatlardan foydalangan tadbirkorlik subyektlarining yillik savdo hajmi o'rtacha 22% ga oshgan. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish jarayonini 15–18% samaraliroq qilmoqda.

4. Tadbirkorlik infratuzilmasining rivojlanishi. Hududiy infratuzilma, biznes-



inkubatorlar, sanoat zonalari va logistika markazlari tashkil etilishi tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirmoqda. Masalan, 2022–2025 yillarda 12 ta biznes-inkubator va 5 ta logistika markazi faoliyat boshladi, bu esa 3 500 dan ortiq tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoit yaratdi. Sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar oʻrtacha 30% koʻproq ish oʻrinlari yaratgan.

5. Innovatsion muhit va startaplarni qoʻllab-quvvatlash. Innovatsion muhitni shakllantirish va startap tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon boʻlmoqda. 2023 yilda startaplarni rivojlantirish dasturi orqali 450 yangi startap loyihasi moliyalashtirildi va ularning 60% dan ortigʻi birinchi yilda rentabellik koʻrsatdi.

6. Inson kapitalini rivojlantirish. Malakali kadrlar tayyorlash va tadbirkorlik koʻnikmalarini rivojlantirish tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Malaka oshirish kurslari va biznes treninglarida 12 000 nafar tadbirkor va xodimlar ishtirok etdi, ish samaradorligini oʻrtacha 15% ga oshirdi.

7. Differensial yondashuv. Har bir mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qoʻllash tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatining samaradorligini oshiradi. Hududiy salohiyatdan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan dasturlar natijasida kichik biznesning uzoq muddatli rivojlanishi va barqarorligi taʼminlanmoqda. Masalan, Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarish sektoridagi qoʻllab-quvvatlash tadbirlari natijasida yillik oʻsish 25%, Navoiy viloyatida xizmatlar koʻlamining kengayishi 18% ga erishildi. Mintaqaviy darajada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish kompleks, tizimli va muvofiqlashtirilgan siyosat talab etishini koʻrsatadi. Moliyaviy qoʻllab-quvvatlash, innovatsion muhit, infratuzilma rivoji va inson kapitalini rivojlantirish choralarining uygʻunligi tadbirkorlik subyektlarining barqaror oʻsishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash hududiy iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, aholi bandligini oshirish va ijtimoiy rivojlanishga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, kompleks yondashuv asosida olib borilayotgan davlat siyosati, innovatsion tashabbuslar va qulay biznes muhitining uygʻunlashuvi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Moliyaviy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari, xususan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Maʼmuriy tartib-taomillarni soddalashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirishda muhim omil sifatida namoyon boʻlmoqda.



Innovatsion muhitni shakllantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorligini kuchaytirishda asosiy rol o'ynaydi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish – malakali kadrlar tayyorlash, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim tizimi bilan biznes o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish – tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida ajralib turadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, har bir mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasining samaradorligini oshiradi. Hududiy salohiyatga moslashtirilgan dasturlar kichik biznesning uzoq muddatli va barqaror o'sishini ta'minlaydi, mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks va muvofiqlashtirilgan siyosat mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan institutsional islohotlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion va raqamli infratuzilmani rivojlantirishda inson kapitalini mustahkamlash bo'yicha choralar birgalikda amalga oshirilishi zarur.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., & Botirova, S. (2020). *The need to educate young people with the spirit of patriotism in the context of globalization*. Journal of Critical Reviews, 7(12), 243–247.
2. Kholikova, N. (2020). *Poetic features of Uzbek poetry of the national awakening period*. ISJ Theoretical & Applied Science, 04(84), 615–623.
3. Barduhn, S. (2014). *Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom*. Teaching English, British Council.
4. Aidis, R., Estrin, S., & Mickiewicz, T. (2008). *Entrepreneurship in transition economies: The role of institutions and generational change*. European Journal of Development Research, 20(1), 1–13.
5. Smallbone, D., & Welter, F. (2001). *The role of government in SME development in transition economies*. International Small Business Journal, 19(4), 63–77.
6. Karimova, F. (2019). *Kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi roli: O'zbekiston tajribasi*. Journal of Economics and Management, 2(3), 45–53.